


68. Ikki xonali sonlarni ayirish

o'nliklar va birliklar
kamayuvchi
ayriluvchi
ayirma



$$35 - 21 = 14$$



1. Buxoro bug'usini saqlash uchun 1- sonli maktab o'quvchilari 43 qop, 2- sonli maktab o'quvchilari esa ulardan 12 qop kam eman yong'og'i terishdi.
2- sonli maktab o'quvchilari necha qop eman yong'og'i terishgan?



2. Rasmga qarab ifoda tuzing va uning qiymatini toping.
Bu ifoda qanday savolga javob beradi?



3. “>” yoki “<” belgilaridan foydalanib tengsizliklar yozing:
16 soni 13 dan katta. 15 soni 20 dan kichik.




4. Birinchi qatordagi namuna bo'yicha misollar tuzing.


$24 + 43 = 67$	$43 + 24 = 67$	$67 - 24 = 43$	$67 - 43 = 24$
$56 + 12 =$	$12 + 56 =$		
$34 + 42 =$			
$11 + 56 =$			
$27 + 12 =$			



5. Rasmlarda qanday geometrik shakllar bor? Hamma uchburchaklarni bo'yang.



6. Qo'ng'iroqchalarning
nomerlarini xona birliklari
yig'indisi shaklida yozing.



7. Zanjirchalarni davom ettiring. Har bir keyingi son: oldingisidan 11 ta ko'p;

2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14 15 16 17 18 19 20

oldingisidan 12 ta kam.

48